

ANGOR TUMANI IQTISODIYOT TARMOQLARINING TUZULISHI VA TUMANNING INVESTITSION JOZIBADORLIGI

Erdanov Muhammadi Nuraliyevich

*Termiz davlat universiteti Geografiya kafedrası dotsenti,
geografiya fanlari nomzodi.*

erdanovm@tersu.uz

<https://orcid.org/0000-0002-8745-0615>

Alimardonova Asilabonu Quvonch qizi

Termiz davlat universiteti Geografiya kafedrası magistranti

alimrdonovaasilaxon@gmail.uz

<https://orcid.org/0000-0007-3612-8963>

UDK 332.142

Annotatsiya: Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatining Angor tumani iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlari, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarilish, xizmat ko'rsatish tarmoqlari tarkibi va aholining demografik salohiyati tadqiq etiladi. Tuman aholisi orasida paydo bo'layotgan ish bilan bandlik muammolari, tumanda sanoatning sust rivojlanayotganligining asosiy sabablari, tumanning investitsion muhitiga va ishlab chiqarish korxonalarining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar o'rganilib taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Iqtisodiy ko'rsatkichlari, qishloq xo'jaligi, tabiiy boyliklar, mehnat resurslari, aholi soni, investitsion muhiti, aholining bandlik darajasi, aholining demografik salohiyati, ishlab chiqarish korxonalari.

Аннотация: В данной статье изучены экономические и социальные показатели Ангорского района Сурхандарьинской области, объем производства промышленной продукции, производство сельскохозяйственной продукции и демографический потенциал населения. Были изучены проблемы трудоустройства жителей района, основные причины медленного развития промышленности в районе, факторы, влияющие на инвестиционную среду и развитие производственных.

Ключевые слова: экономические показатели, сельское хозяйство, природные ресурсы, трудовые ресурсы, население, инвестиционная среда, уровень занятости

населения, демографический потенциал населения, производственные предприятия. предприятий района и даны предложения и рекомендации.

Abstract: In this article, the economic and social indicators of Angor district of Surkhondarya region, the volume of production of industrial products, the production of agricultural products and the demographic potential of the population are studied. The problems of employment among the residents of the district, the main reasons for the slow development of the industry in the district, the factors affecting the investment environment and the development of production enterprises of the district were studied and suggestions and recommendations were made.

Key words: economic indicators, agriculture, natural resources, labor resources, population, investment environment, employment rate of the population, demographic potential of the population, production enterprises.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

Mamlakatimizda mustaqilligimizdan keyingi yillarda kichik hududlarni o'rganishga chuqur e'tibor qaratila boshlandi. Lekin, o'tgan asrda tadqiqotlar katta hududlar darajasida olib borilgan va yuzakligi yorqin ko'zga tashlanib turadi, bugungi kun tadqiqotlar ko'lamida esa mikro-mintaqalar darajasida olib borilmoqda va chuqur ilmiy tadqiqot ishlari va kuzatuvlarni talab qiladi. Hozirgi globallashuv davridan ma'lumki, umumiy tadqiqot — katta maydonlardan kichik maydonlarga- ya'ni katta hududlar kichik

hududlarga emas aksincha kichik hududlarda o'tkazilgan tadqiqotlar katta hududlar geografiyasiga xizmat qiladi, chunki geografik hodisalarning kelib chiqishi va har qanday mintaqadagi hodisalarning sabablari va oqibatlarini aniq ochib berish mukammal darajada olib boriladi va bu esa hududning iqtisodiy ijtimoiy ustunliklarini to'g'ri anglab yetishda, tabiiy resurslaridan samarali va intensiv foydalanishda, hududdagi muammolarni to'g'ri tushunishda va ularni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Respublikamizda siyosiy-ma'muriy jihatdan quyidagi hududiy birliklardan tashkil topgan: O'zbekiston Respublikasi viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullar. Hududlarni kichik maydon yoki hududda o'rganish vujudga keladigan muammolarni yuzaki emas balki keng doirada, chuqur tadqiq etishga imkon beradi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Angor tumani Surxondaryo viloyatining janubiy hududlarida joylashgan tumanlaridan biri hisoblanib, mustaqillik yillarida anchayin shiddat bilan rivojlandi. Angor tumani 1952-yil 16 -aprelda Termiz va Sherobod tumanlari hududida tashkil etilgan bo'lib, viloyatning ma'muriy markazi Termiz shahridan 33 km shimoli-g'arbda joylashgan. Angor tumanining umumiy chegarasi 98 kilometrni tashkil etadi, shimol tarafida Qiziriq tumani bilan 16,1 kilometr, janubda Termiz tumani bilan 24.5 kilometr, sharqda Jarqo'rg'on bilan 35 kilometr va g'arbda va janibi-g'arbda Muzrabot tumanlari bilan 23.1 kilometr chegaradosh. Maydoni 0.39 ming km², Surxondaryo viloyatining eng kichik tumanlaridan biri. Angor Surxon vohasida joylashgan qadimdan aholi yashab kelayotgan hududlardan biri. Tarixiy manbalarga ko'ra voha aholisi dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanib kelgan. Vohada dehqonchilik madaniyati ikki- uch ming yillik tarixga ega va sug'orish ishlariga oid gidrotexnik inshootlar mavjud bo'lgan. Vohaning kishilik jamiyatidagi rivojida Amudaryoning ahamiyati beqiyosdir. Angor nafaqat O'zbekistonning balki butun dunyoning eng qadimgi aholi manzilgohlaridan biridir.

Tarixi: Angor aholisini suv bilan ta'minlashda Sheroboddan oqib keluvchi

ariqlardan foydalanilgan. Hududida aholi manzilgohlarining paydo bo'lishi miloddan avvalgi VI-IV asrlarga to'g'ri keladi. Kushon podshohligi davrida (miloddan avvalgi I-III asrlarda) dehqonchilik manzilgohlari paydo bo'la boshlagan. Hozirgi Angor shaharchasida joylashgan Zartepa qal'asi markaz vazifasini bajargan. Tumanning hozirgi markazi bo'lgan Angor shaharchasining vujudga kelishi va aholining sonining ortishida 1900 yilda Jarqo'rg'on dan qazib kelingan kanal bilan bog'liq. Angor tumani hududida topilgan eng qadimgi topilmalar miloddan avvalgi IV-II asrlarga borib taqaladi. Angor shaharchasi va tumanning boshqa hududlarida ko'plab arxeologik yodgorliklar saqlanib qolgan Tuman Buyuk Ipak yo'lining ustida joylashgan va unda joylashga qadimgi arxeologik yodgorliklar hisoblangan Zartepa, O'rdalitepa, Bolaliktepa, Teshiktepa va Nog'oratepa karvonlar to'xtaydigan va dam oladigan istehkom vazifasini bajargan. Angor tumani hududida hozirgi kunda yigirmadan ortiq tarixiy obida mavjudligi aniqlangan va bu tarixiy-arxeologik yodgorliklar olimlar tomonidan o'rganilmoqda. Angor hududida Novshahar, Xayrobod, Oftobrobot, Zang, Takiya, Istara va Kayran nomli yirik qishloqlar mavjud bo'lgan. Bu qishloqlarning aksariyati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 13-martdagi 68-sonli qaroriga asosan shaharcha maqomi berildi.

Geografik o'rni tabiiy sharoiti va resurslari: Angor tumani Surxondaryo vohasining eng janubida joylashgan tumanlardan biri hisoblanadi. Shimoliy tarafida Qiziriq, g'arbida Xotinrabot dashtlariga tutashgan. Shimoliy qismida Xovdog', janubi-sharqida Qoraqir qirlari bor. Ular orasida Kattaqum joylashgan. Iqlimi quruq subtropik iqlim hisoblanadi. Qishi qisqa, iliq va quruq, lekin yilning boshqa fasllariga qaraganda ko'proq yog'in yog'adi. Yanvarning o'rtacha temperaturasi 2 — 3°. Yozi issiq, davomli. Iyulning o'rtacha temperaturasi 31 — 32°. Yiliga 120 — 130 mm. yog'in tushadi. Vegetatsiya davri 300 kun. Tuman hududining g'arbiy qismidan Sherobod daryosining quyi qismi oqib o'tadi. Zang kanalidan tarmoqlanadigan ariqlardan sug'oriladi. Tuprog'i bo'z, taqir, qumloq tuproq. Tuproq

sho'rlanishini kamaytirish uchun tuman hududi bo'ylab shimoli-sharqdan janubi-g'arb yo'nalishida zovur qazilgan. Bahorda asosan yer yuzasi efemer o'simliklar bilan qoplanadi. Yil davomida esa sho'ra, yantoq, jing'il, qiyoq, qamish, burgan kabi cho'l o'simliklari o'sadi, yana tumanida oq saksovul, cherkez, qandim, teresken, yantoq kabilar ham uchraydi. Tuman hududining ko'p qismi o'zlashtirilganligi va aholi yashab kelayotganligi sababli cho'l-dashtga xos yovvoyi hayvonlar deyarli uchramaydi. Ayrim hududlari jayra, silovsin, bo'ri, chiyabo'ri, tulki, qushlardan qirg'ovul, kaklik, mayna, chug'urchiq, chumchuqlar yashaydi. Tuman hududida "Qizil kitob" ga kiritilgan o'simlik va hayvon turlari yo'q.


Aholisi va mehnat resurslari: Aholi soni 139 559 kishi (01.01.2023 yil ma'lumoti bo'yicha) ushbu ko'rsatkich bo'yicha Angor

tumani viloyatda Boysun, Qiziriq, Termiz va Bandixon tumanlaridagina oldingi o'rinda turadi. Tuman asosiy hududi sug'oriladigan maydonlarda joylashgan, shuning uchun aholi zichligi yuqori har bir kilometr kvadratga 352,3 kishidan to'g'ri keladi bu esa Surxondaryoning o'rtacha aholi zichligidan 2.5 barobar yuqoridir va aholining zichligi bo'yicha viloyatda Termiz shahridan keyingi ikkinchi o'rinda turadi. Tuman ma'muriy hududiy jihatdan 11 ta shaharcha, 34 ta mahalla fuqarolar yig'inlaridan iborat hisoblanadi. Viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yilning 1 oktyabr holatiga, Angor tumani doimiy aholisi 139 559 kishini tashkil etmoqda. Shundan :


Shahar joylarda – 67 992 kishi

Qishloq joylarda – 71 567 kishi

ANGOR TUMANI AHOLISINING HUDUDLAR BO'YLAB TAQSIMLANISHI



ANGOR TUMANI AHOLISINIG JINSIY TARKIBI



Jinsiy tarkibiga ko'ra esa quyidagicha ko'rsatkichlar qayt etilgan :

Erkaklar soni – 69 928 kishi.

Ayyollar soni – 69 631 kishi.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI. Tadqiqot natijasida tumanning iqtisodiy rivojlanishida quyidagi omillar muhim rol o'ynaydi :

- Mamlakatimizda eng asosiy avtomobil transport yo'llaridan biri bo'lgan Katta o'zbek traktining ustida, Toshkent-Termiz yo'nalishida joylashganligi.

- Viloyat markazi hisoblangan Termiz shahriga boshqa tumanlardan ko'ra yaqinroq joylashganligi va viloyat markaziga kunlik aglomeratsiya hajmining kattaligi .

- Iqtisodiy jihatdan viloyatda yaxshi rivojlangan Jarqo'rg'on tumani bilan chegaradosh ekanligi.

- Tuman hududidan Qorasuv daryo va Zang kanallari, va ulardan uzunroq bo'lgan Sheraboddaryoning shu hududdan oqib o'tishi va hududda sug'orish ishlarida keng foydalanishga imkon borligi.

- Viloyat hududidagi eng katta savdo markazlaridan biri bo'lgan "Surxon kelajagi savdo" savdo markazining aynan Angor tumanida joylashganligi.

Yuqoridagi omillar Angor tumaning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi va rivojlanishini ta'minlab beradi.

Asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar
(2021 yilning yanvar-iyun oylarida)


	Jami		Aholi jon boshiga	
	mlrd. so'm	2020 yilning yanvar-iyuniga nisbatan foizda	ming so'm	2020 yilning yanvar-iyuniga nisbatan foizda
Sanoat	91,6	114,7	677,5	112,6
Iste'mol tovarlari	33,5	117,3	247,8	115,2
Asosiy kapitalga investitsiyalar	182,1	114,9	1346,9	112,8
Qurilish ishlari	78,7	103,2	581,8	102,3
Chakana tovar aylanmasi	286,7	109,9	2 120,8	107,9
Xizmatlar, jami	208,2	114,6	1540,1	112,5

Xo'jaligi va tarmoqlarining hududiy tarkibi: Angor tumani xo'jaligi sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohaslaridan tarkib topgan . Yirik sanoat korxonalari Angor shaharchasi hududida joylashgan. Tuman aholining zichligi bo'yicha viloyatda yetakchi o'rinlarda turadi(har bir kilometr kvadratga 345 kishidan). Bunga sabab hududda sug'orish uchun yetarlicha maydonning mavjudligi va suv bilan yaxshi ta'minlanganligidadir. Tuman nomining ma'nosiga e'tibor qaratiladigan bo'lsa ham bu nom bevosita qadimdan hududda obikor dehqonchilik qilinganligi bilan bog'liq. Hududning umumiy yer fondi 18.5 ming gektar shundan 15.8 ming gektarida ekin ekish maqsadida foydalaniladi.

TADQIQOT NATIJALARI. Sanoati: 2022-yilning yanvar-iyun oylarida tumanda 91,6 mlrd. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilishi amalga oshirilgan bo'lib, shundan 42,1 mlrd. so'm yoki umumiy hajmning 46,0% ni kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti tashkil qilganligini ko'rishimiz mumkin.

Angor tumanida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmidan davlat sektorining ulushi salmoqli ekanligini ko'rish mumkin. Angor tumanidagi sanoat korxonalari tomonidan 2022 yanvar-iyun oylarida 6,8 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi yoki o'sish surati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 105,2% ni tashkil etdi, shuning bilan birga ishlab chiqarish

hajmining to'liq nodavlat sektorida ishlab chiqarilib, umumiy hajmga nisbatan 100,0 % tashkil etdi.



Surxondaryo viloyati va shahar, tumanlarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmini tumanlararo hamda tumanlarni shahar ko'rsatkichlari bilan taqqoslash orqali tahlil qilish, sanoat mahsulotini aholi jon boshiga to'g'ri keladigan miqdori dinamikasini kuzatish va o'sish nuqtalarini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. 2022 yilning yanvar-iyun oylarida Angor tumanida sanoat mahsuloti ishlab chiqarilishi 91,6 mlrd. so'mni tashkil etib, mazkur ko'rsatkich Surxondaryo viloyatining jami sanoat mahsuloti ishlab chiqarilishida 3,5 % tashkil etdi. Tumanda ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi aholi jon boshiga 677,5 ming so'mni yoki o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 112,6 % ni tashkil qilganligini kuzatishimiz mumkin. Shuningdek, tumanda iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi 33,5 mlrd. so'mni tashkil qilib, Surxondaryo viloyatining jami iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishida 3,4 % ni tashkil etdi. Ammo bu ko'rsatkichlar tuman aholisini boshqa tumanlar bilan solishtirganda nisbatan past ko'rsatkich hisoblanadi.

Kichik sanoat zonalarida 1 ta Kichik sanoat zonasi va 1 ta Yoshlar sanoat zonalarida tashkil etilgan bo'lib, o'z faoliyatini boshlash istagida bo'lgan tadbirkorlarga barcha kommunikatsiya va qulayliklarga ega bo'lgan yer maydonlari ajratib berilgan. Bugungi kunda Kichik sanoat zonasida 14 ta bino inshootlarga

tadbirkor subyektlari joylashtirilib ishga tushirilgan. KSZ hududida joylashgan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish loyihalarining umumiy qiymati 12,0 mlrd. so'm. Amalga oshirilgan loyihalar doirasida 65 ta yangi ish o'rinlari yaratilgan. Angor tumani hududiga ishga tushishi rejalashtirilgan asosiy sanoat korxonalar va xizmat ko'rsatish shaxobchalari kichik sanoat zonalariga joylashtirilgan. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va xorijiy kreditlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2022-2026yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini tasdiqlash hamda investitsiya loyihalarini boshqarishning yangi yondashuv va mexanizmlarini joriy etish to'g'risida"gi PQ-72-sonli qaroriga asosan tumanda 2022-yilda 1 ta loyihalar doirasida 15,0 mln AQSh dollar miqdoridagi to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish rejalashtirilgan. Jumladan, "Top Quality Brand" MChJ negizida terini qayta ishlash hamda charmdan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish bo'yicha 15,0 mln AQSh dollarlik loyihani amalga oshirish belgilangan. 4-chorakda amalda qo'shimcha loyihalar hisobiga "Top Quality-Brand" MChJ tomonidan 10,0 mln AQSh dollar. TERMEZ AGRO EXPERT" MChJ XK tomonidan 0,5 mln AQSh dollar. "Angor Surxon Non-Tomorqa Xizmati" MChJ

tomonidan 0,1 mln AQSh dollar. "Angor Savdo Ko'ngilochar Markazi" MChJ tomonidan 3,6 mln AQSh dollar. "SAHMAHMUT YILDIZ" MChJ XK tomonidan 1,0 mln AQSh dollar. "Qodir Shaxob" MChJ XK tomonidan 1,0 mln AQSh dollar. "Tanovar Surxon" MChJ XK tomonidan 0,5 mln AQSh dollarlik to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hamda xorijiy kredit mablag'lari o'zlashtirish rejalashtirilib, 2022 yil 24-dekabr holatiga jami 10,0 mln AQSh dollarlik to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hamda xorijiy kredit investitsiya mablag'lari jalb qilishga erishildi.

Yoshlar sanoati va tadbirkorligi zonasida jami 30 ta lotlarga ajratilib barcha yer maydoni tadbirkorlik subyektlariga ajratib berilgan. Bugungi kunda 30 ta lotlarga qiymati 19,0 mlrd. so'mlik loyihalar joylashtirilgan bo'lib, 191 ta yangi ish o'rinlari yaratilishi rejalashtirilgan.

Qishloq xo'jaligi: Angor tumanining qishloq xo'jaligi tarmoqlariga to'xtaladigan bo'lsak, tuman g'alla, paxta va sabzavot-poliz mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashgan. Bog'dorchilik va tokchilik bilan ham shug'ullaniladi. 2022- yilning yanvar-dekabr yakunlariga ko'ra, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 98,7 % i — dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarida ko'rsatilgan xizmatlar, 0,9 % i — o'rmon xo'jaligi, 0,4 % i — baliqchilik xo'jaligi hissasiga to'g'ri keladi. Bunda Angor tumani qishloq xo'jalik mahsulotlarining hajmi 1626 mlrd. so'mni tashkil etadi va o'tgan yilga nisbatan o'sish 100,4 foizni tashkil etdi. Agarda Angor tumanining qishloq xo'jaligi tarmoqlariga nazar tashlaydigan bo'lsak 61,3 foizni dehqonchilik tashkil etadi, chorvachilik esa 38,7 foizni tashkil qiladi. Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 65,6% i — dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 26,7 % i — fermer xo'jaliklariga, 7,7 % i — qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishi ko'rsatilmoqda.

Qishloq xo'jalik ekinlarini ayrim ekinlarini viloyat va tumanimiz kesimida tahlil qiladigan bo'lsak quyidagi raqamlarni ko'rishimiz mumkin: 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 723,8

ming t. don (2021- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 0,7 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Don ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, don ishlab chiqarish umumiy hajmidan 72,6 % i fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishi ko'rsatilmoqda. Bunda Angor tumani 38868 tonna don ekinlari yetishtirgan. 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 350,5 ming t. kartoshka (2021- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 1,2 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Kartoshka ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, kartoshka ishlab chiqarish umumiy hajmidan 90,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishi ko'rsatilmoqda. Bunda Angor tumani 18033 tonna kartoshka ekini yetishtirilgan.

Qayd etilishicha, so'nggi uch yilda viloyatda sabzavot maydonlari 35 ming gektarga kengaytirilgan va 10 ming gektarda intensiv bog'lar, tokzor va issiqxonalar barpo etilgan, so'nggi yillarda Angor tumanida 6,5 ming gektarda ertaki ekin sifatida ko'kat, karam, brokkoli, qizil lavlagi, bulg'or qalampiri kabi mahsulotlarni yetishtirmoqda. Bundan tashqari, 21 ming aholi xonadonidagi 2,3 ming gektar tomorqada ham ushbu eksportbop ekinlar ekilmoqda. Buning hisobiga, tumanda joriy yilning o'zida qariyb 10 million dollarlik mahsulotlar eksport qilingan.

2022-yil hosili uchun Angor tumani g'allakorlari 5 650 gektar yerda mahalliy iqlim va tuproq sharoitiga mos ertapishar va serhosil navli urug'larni ekib, undirib oldi. Ekinlar zamonaviy texnologiyalar asosida parvarish qilinishi samarasida kutilgan hosil yetishtirildi va 6 317 tonna tovar-don yig'ib olindi. O'rib olingan maydonlarda o'rtacha hosildorlik 77-80 sentnerni tashkil etdi. Angor tumanidagi "Zamin Angor klaster" MCHJ, "Sayidnosirxon", "Angor Xomkon mirishkori", "Xomkon mirishkor dehqonlari" kabi fermer xo'jaliklari yirik fermer xo'jaliklar hisoblanadi.


Angor tumaning qulay geografik joylashishiga qaramasdan hududda bir qancha muammolar mavjud bular sanoatning tuman hududida sust rivojlanganligi qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligining pastligi, hududga kiritilayotgan investitsiyalar miqdori kamligi

va aholining ish bilan ta'minlashda vujudga kelayotgan muammolar hisoblanadi.

Ijtimoiy sohalar: Xizmat ko'rsatish sohasini mamlakatimiz ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib, rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish dolzarbligicha qolmoqda. Shu bilan birga, mazkur tarmoqni rivojlantirishdagi jiddiy kamchiliklarni ta'kidlash joiz, xususan, bandlikni oshirish va aholi daromadlarini ko'paytirish hamda mahalliy byudjetlarni to'ldirishning istiqbolli manbai sifatida xizmat ko'rsatish imkoniyatlaridan kam foydalanilmoqda. 2023-yilning 1-yanvar holatiga Surxondaryo viloyatidagi maktablarda

529 351 nafar o'quvchi tahsil olmoqda. Angor tumanida esa bu ko'rsatkich 24 824 o'quvchi tashkil etadi 50 dan ziyod maktabgacha tarbiya, muallimlar tayyorlash 46 ta umumiy o'rta ta'lim muassasasi va 7 ta kasb-hunar kolleji, 2 iqtidorli bolalar litseyi mavjud. 1 ta kutubxona, 1 ta madaniyat uyi, 14 qishloq klubi, Angor shaharchasida A. Navoiy nomidagi madaniyat va istirohat bog'i, "Orzu" kinoteatri aholiga xizmat ko'rsatadi. Markaziy kasalxona, 8 qishloq ambulatoriyasi, 52 feldsher-akusherlik punkti, 2 poliklinika, Markaziy stadion, 12 sport zali, 28 futbol maydonchasi ishlab turibdi (2022 yil).

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
xizmatlarining o'sish sur'ati**
(yanvar–iyun oylarida)



Transport geografiyasi : Tuman transport tarmoqlariga to'xtaladigan bo'lsak, Angor tumanining asosiy transport tarmog'i avtomobil transporti hisoblanadi. Tuman hududidan temir yo'l o'tmagan bu esa tuman rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Surxondaryo viloyatining transport xizmatlari 2021 yilni yanvar-dekabr oylarida 1608.4 mlrd. so'mni, o'sish sur'ati esa 116,3 foizni tashkil qilgan, bu ko'rsatkich 2022-yil davrning aynan shu vaqtida 1926,9 mlrd. so'mni va 112,8 foiz o'sishni tashkil qiladi, Angor tumanida esa bu ko'rsatkich 99 mlrd. so'mni, o'sish esa 110,1 foizni tashkil etadi.

Angor tumanida avtomobil transporti yaxshi rivojlangan chunki tuman Katta o'zbek traktining ustida Termiz va Toshkentni bog'laydigan M-39 asosiy yo'li ustida

joylashgan. Bu tumanning hozirgi iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Angor tumani hududidagi xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan yo'llarning umumiy uzunligi 22 kilometrni, davlat ahamiyatiga ega bo'lgan yo'llar esa 35 kilometrni tashkil qiladi. Tumanning avtomobil transportida tashkil etadigan xizmatlar aylanmasi 97.8 mlrd. so'mni, o'sish sur'ati esa 108.7 foizni tashkil qiladi.

Bir so'z bilan aytganda, tumanda ishlab chiqaruvchi kuchlarni oqilona joylashtirish va rivojlantirishda quyidagi masalalarni hal etish maqsadga muvofiqdir. Tumanning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida uning iqtisodiy va intellektual salohiyatidan samarali foydalanish talab etiladi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Tuman hududining nisbatan

kichik ekanligini ham unda yer resurslarining cheklanganligini hisobga olgan holda tuman hududida tabiiy resurslardan samarali foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi, hamda tumanning paxta yetishtirish salohiyatini hisobga olish kerak.

- Tuman hududida paxta-to'qimachilik klasterini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega, chunki hozirda tuman hududida faoliyat ko'rsatayotgan paxta tozalash zavodi to'liq integratsiyalashmagan va mahsulot narxining ko'tarilishiga sabab bo'lmoqda.

— Tumanda xorijiy investitsiyalar yordamida sabzavot, poliz, xom meva, uzum kabilarni qayta ishlash korxonalari muhim ahamiyat kasb etadi, yuqorida keltirib o'tilgan ma'lumotlarga asoslanadigan bo'lsak tuman katta hajmda meva va sabzavot ekinlarini yetishtirmoqda, ularni esa tuman hududida qayta ishlash katta samara beradi va aholini ish

bilan ta'minlashda ham ustunlikka ega bo'ladi.

— Pilla xomashyosini qayta ishlaydigan zamonaviy korxonalar, xom ashyoni qayta ishlaydigan zamonaviy korxonalar qurilishi va ishga tushirilishi tumanning iqtisodiy rivojlanishini yanada oshiradi va iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni ko'paytiradi.

— Tuman hududida ichimlik suvi muammosini hal qilish uchun yer osti suvlaridan keng foydalanish kerak, chunki hozirgi ichimlik suvi bilan ta'minlanish tuman hududida qoniqarli darajada emas.

— Tumanda xizmat ko'rsatish sohalarini yaxshilash kerak ayniqsa bu shahar ichida avtomobil tirbandligini oldini oladi va yo'l haqqining tushishini ta'minlaydi hamda tuman hududida servis tarmoqlarini mahallalar kesimida joylashtirish aholining bu tarmoqlar bilan bo'ladigan muammolarni yechimi bo'la oladi.

ADABIYOTLAR VA MANBALAR RO'YXATI (ИСТОЧНИКОВ ЛИТЕРАТУРЫ / REFERENCES)

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent. O'zbekiston, 2016.
2. Soliyev A. O'zbekiston geografiyasi. Universitet. T.: -2014.
3. Ro'ziyev A. Surxondaryo geografiyasi. Jayxun. T.: -1996.
4. Surxondaryo viloyati statistika to'plami. Termiz: 2018.
5. Abdunazarov H.M., Ortiqova Sh.Z. General Geographical Description Of Angor District Eurasian Journal of History, Geography and Economics VOLUME 3 December 2021.
6. Rakhmatov A. F. Artikova Sh. Z. Development of Fishing Farms in River and River Areas of Surkhandarya Region Middle European Scientific Bulletin, VOLUME 17 Oct 2021.
7. Rakhmatov A.F., Ortikova Sh.Z. Surxondaryo viloyati bog'dorchiligining geografik ko'rinishi Journal of Geography and Natural Resources <https://topjournals.uz/index.php/jgnr>.